YANGI O'ZBEKISTONNI SHAKLLANTIRUVCHI OMIL – SIFAT, SIFAT VA YANA SIFAT

THE FACTOR SHAPING NEW UZBEKISTAN: QUALITY, QUALITY AND QUALITY AGAIN

Mualliflar: G'ulomov Saidaxror Saidaxmedovich[1], Pardayev Mamayunus Qarshibayevich [2], Pardayev Obid Mamayunusovich[3]
Affiliyatsiya: O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi [1], iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti [2], iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Energiya samaradorligi milliy agentligi direktorining birinchi o'rinbosari
DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23279123

ANNOTATSIYA

Maqolada Yangi O'zbekistonni barpo etish, mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyoti va raqobatbardoshligini ta'minlashda sifat omilining strategik ahamiyati ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Global raqobat sharoitida mamlakat taraqqiyotini faqat iqtisodiy o'sish sur'atlari, investitsiyalar hajmi yoki ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bilan baholash yetarli emasligi, taraqqiyotning barqarorligi inson kapitali, ta'lim, ilm-fan, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi, tadbirkorlik muhiti, mahsulot va xizmatlar, qonun ustuvorligi hamda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar sifatiga bog'liq ekani asoslanadi. Mualliflar "sifat" tushunchasini Yangi O'zbekiston taraqqiyotining universal mezoni sifatida talqin etib, sifatli taraqqiyotni ta'minlovchi omillar zanjirini va "inson kapitali sifati – faoliyat sifati – natija sifati" tarkibidan iborat "3S" konseptual modelini taklif etadi. Sifatni boshqarishning institutsional, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy mexanizmlarini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, sifat, sifatli taraqqiyot, inson kapitali, ta'lim sifati, sifatli ish o'rni, mehnat unumdorligi, raqobatbardoshlik, davlat boshqaruvi, hayot sifati, "3S" modeli

ABSTRACT

The article provides a theoretical and practical analysis of the strategic importance of quality in building New Uzbekistan and in ensuring the country's long-term development and competitiveness. It argues that, under conditions of global competition, a country's development cannot be assessed solely by economic growth rates, investment volumes or output indicators, since the sustainability of development depends on the quality of human capital, education, science, healthcare, public administration, the business environment, products and services, the rule of law and spiritual and moral values. The authors treat quality as a universal criterion of New Uzbekistan's development, propose a chain of factors that ensure quality-based development, and put forward a "3Q" conceptual model comprising the quality of human capital, the quality of activity and the quality of results. Scientific and practical recommendations are developed for improving the institutional, economic, social and moral mechanisms of quality management.

Keywords: New Uzbekistan, quality, quality-based development, human capital, quality of education, quality jobs, labour productivity, competitiveness, public administration, quality of life, “3Q” model

Globallashuv va kuchli xalqaro raqobat sharoitida mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashda miqdoriy koʻrsatkichlar bilan bir qatorda sifat koʻrsatkichlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Iqtisodiy oʻsish sur'atlarining yuqoriligi, investitsiyalar hajmining koʻpayishi, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi yoki yangi ish oʻrinlarining yaratilishi oʻz-oʻzidan barqaror taraqqiyotni ta'minlamaydi: bu natijalarning samaradorligi, avvalo, ularning sifati bilan belgilanadi.

Yangi Oʻzbekistonni barpo etish jarayonida ham asosiy e'tiborni miqdoriy oʻzgarishlardan sifat jihatidan yuksalishga qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yondashuv 2022–2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi va “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan inson qadrini yuksaltirish, ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish vazifalari bilan uygʻundir [1; 2]. Zamonaviy taraqqiyot inson kapitali, ta'lim va ilm-fan sifati, mehnat unumdorligi, innovatsion faollik, davlat boshqaruvi samaradorligi, tadbirkorlik muhiti, mahsulot va xizmatlar sifati, qonun ustuvorligi hamda aholi hayot sifati bilan uzviy bogʻliq.

XXI asrda mamlakatlar oʻrtasidagi raqobat tobora koʻproq tabiiy, hududiy yoki mehnat resurslari bilan emas, balki sifat va samaradorlik bilan belgilanmoqda [13]. Ta'lim sifatli boʻlsa, malakali kadrlar yetishib chiqadi; kadrlar malakali boʻlsa, mehnat unumdorligi oshadi; mehnat unumdorligi oshsa, mahsulot va xizmatlarning raqobatbardoshligi kuchayadi; raqobatbardosh iqtisodiyot esa aholi farovonligining oʻsishiga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, Yangi Oʻzbekistonni shakllantirishdagi eng muhim masalalardan biri – sifatga boʻlgan munosabatni tubdan oʻzgartirishdir.

Sifat bir martalik natija emas: u doimiy takomillashuv, mas'uliyat, intizom, bilim, innovatsiya va samaradorlikni talab qiladi. Jahon iqtisodiyotida raqobat kuchayib borayotgan sharoitda Oʻzbekistonning xalqaro iqtisodiy mavqeini mustahkamlash uchun nafaqat koʻproq, balki xalqaro standartlarga javob beradigan, yuqori qoʻshilgan qiymatga ega va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish talab etiladi. Shu bois “Sifat, sifat va yana sifat” tamoyilini Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining konseptual asoslaridan biri sifatida ilmiy tadqiq etish dolzarb hisoblanadi.

Sifat muammosi iqtisodiyot fanida, avvalo, mahsulot va xizmatlar sifatini boshqarish nuqtai nazaridan oʻrganilgan. J.Juran sifatni “foydalanishga yaroqlilik” sifatida [7], F.Krosbi esa “talablarga muvofiqlik” sifatida ta'riflagan [8]. E.Deming va K.Isikava sifatni bir martalik nazorat emas, balki tashkilotning barcha boʻgʻinlarini qamrab oluvchi uzluksiz takomillashtirish jarayoni sifatida talqin etgan [6; 9]. Xalqaro standartlashtirish tashkilotining ISO 9000 turkumidagi standartlarida sifat ob'yekt xususiyatlarining belgilangan talablarga muvofiqlik darajasi sifatida izohlanadi [10].

Inson kapitali nazariyasi asoschilari T.Shuls va G.Bekker ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va sogʻliqqa qilingan xarajatlarni iqtisodiy oʻsishning muhim manbai boʻlgan investitsiya sifatida asoslagan [4; 5]. Jahon bankining Inson kapitali loyihasida ham ta'lim va sogʻliqni saqlash sifati mamlakatlar kelajakdagi unumdorligini belgilovchi asosiy omil sifatida qaraladi [12]. Xalqaro mehnat tashkilotining “munosib mehnat” konsepsiyasi ish oʻrinlari sonidan tashqari ularning sifati – mehnat sharoiti, ish haqi, ijtimoiy himoya va kasbiy oʻsish imkoniyatlariga e'tibor qaratadi [11]. A.Sen

taraqqiyotni inson imkoniyatlarining kengayishi va hayot sifatining yaxshilanishi bilan bog‘laydi [14], M.Porter esa milliy raqobatbardoshlikning asosini unumdorlik va innovatsiyalarda ko‘radi [13].

Mazkur yondashuvlar, asosan, sifatni alohida sohalar – mahsulot, mehnat yoki inson kapitali doirasida o‘rganadi. Ushbu maqolada esa sifat milliy taraqqiyotning barcha bo‘g‘inlarini bog‘lovchi universal mezon sifatida ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotda tizimli yondashuv, mantiqiy-abstrakt tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Sifatli taraqqiyotni ta'minlovchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalashda grafik modellashtirish usuli qo‘llanildi. Tadqiqotning me'yoriy-huquqiy asosini O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyalari va ta'lim sohasidagi qonunchilik hujjatlari tashkil etadi [1–3].

Sifatli taraqqiyot omillari zanjiri. Tadqiqot natijasida sifatli taraqqiyot va yuksalishni ta'minlovchi omillar bir-birini taqozo etuvchi zanjir shaklida namoyon bo‘lishi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Sifatli taraqqiyot va yuksalishni ta'minlovchi omillar zanjiri
Manba: mualliflar ishlanmasi.

Ushbu zanjirni izohlash uchun taklif etilayotgan yondashuvni shartli ravishda “3S” – “Sifat, sifat va yana sifat” konsepsiyasi deb nomlash maqsadga muvofiq. Konsepsiya mazmuni uch bosqichdan iborat (1-jadval).

1-jadval. “3S” konsepsiyasining tarkibi va mazmuni


Bosqich	Nomlanishi	Mazmuni
Birinchi “S”	Inson kapitali sifati	Bilim, tarbiya, kasbiy malaka, sog‘liq, ma'naviyat va mas'uliyat
Ikkinchi “S”	Faoliyat sifati	Mehnat, ta'lim, boshqaruv, tadbirkorlik, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarining sifati
Uchinchi “S”	Natija sifati	Yaratilgan mahsulot va xizmatlar, daromad, ijtimoiy farovonlik va hayot sifatining yaxshilanishi

Manba: mualliflar ishlanmasi.

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, modelning boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatli inson kapitali, ikkinchisi sifatli faoliyat, uchinchisi esa sifatli natijadir. Ushbu zanjirning yakuniy natijasi – sifatli hayot. Mazkur model Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining konseptual asoslaridan biri bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Sifatli ish o‘rinlari. Sifatli hayotga erishish uchun sifatli mehnat ta'minlangan bo‘lishi lozim; bu mamlakatda iqtisodiy o‘sishning ichki manbai hisoblanadi. Ish o‘rinlarining ko‘payishi muhim, biroq zamonaviy taraqqiyot uchun ish o‘rnining mavjudligi yetarli emas – sifatli ish o‘rinlari zarur. Sifatli ish o‘rni munosib mehnat sharoiti, munosib ish haqi, kasbiy o‘sish imkoniyati, mehnat xavfsizligi, zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi va ijtimoiy himoyani qamrab oladi [11]. Shu bois mehnat bozorida ham miqdordan sifatga – “ko‘proq ish o‘rni”dan “ko‘proq sifatli ish o‘rni”ga o‘tish lozim. Bu, o‘z navbatida, inson kapitalidan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Sifat – taraqqiyotning universal mezoni. Sifat tushunchasi odatda mahsulot yoki xizmatning belgilangan talablarga muvofiqligi bilan izohlanadi [10]. Ammo zamonaviy taraqqiyot nuqtai nazaridan sifat ancha keng tushuncha bo‘lib, inson faoliyatining deyarli barcha sohalarini qamrab oladi (2-rasm).




2-rasm. Yangi O‘zbekistonning shakllanishida sifat omillarining o‘zaro bog‘liqligi

Manba: mualliflar ishlanmasi.

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, sifatni faqat mahsulot xususiyati sifatida talqin etish zamonaviy talablarga javob bermaydi. Keng ma'noda sifat inson kapitali, jamiyat va davlat faoliyatining natijadorlik darajasini ifodalovchi umumiy mezondir.

Sifatli inson kapitali. Yangi O‘zbekistonda sifatli inson kapitali birinchi darajali kapital hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har qanday davlatning eng katta boyligi uning tabiiy resurslari emas, balki inson kapitalidir: taraqqiy etgan mamlakatlar yuksak natijalarga resurslar ko‘pligi emas, balki inson kapitalining yaratuvchanligi hisobiga erishmoqda [4; 12]. Zamonaviy iqtisodiyotda bilimli, kasbiy malakali, innovatsion fikrlaydigan, mas'uliyatli va tashabbuskor inson iqtisodiy o‘sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanmoqda. Sifatli inson kapitalining tarkibiy tuzilishi 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. Sifatli inson kapitalining tarkibiy tuzilishi
Manba: mualliflar ishlanmasi.

3-rasmdan koʻrinib turibdiki, sifatli inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari – bilim va zamonaviy talablarga javob beradigan kasbiy malaka. Ular sogʻliq, mas'uliyat, halollik, tashabbuskorlik, innovatsion fikrlash va vatanparvarlik bilan toʻldiriladi. Shunday fazilatlarga ega inson nafaqat oʻz oilasi, balki korxona, mahalla, jamiyat va davlat taraqqiyotiga ham salmoqli hissa qoʻshadi.

Yangi Oʻzbekistonni barpo etish faqat yangi binolar, korxonalar yoki infratuzilma yaratish bilan cheklanmaydi. Bu, avvalo, yangi sifatdagi inson kapitali, tafakkur, boshqaruv va iqtisodiyotni shakllantirish jarayonidir. Bugungi kunda mamlakat taraqqiyotining asosiy raqobat ustunligi tabiiy resurslar yoki arzon ishchi kuchi emas, balki sifatli inson kapitali va yuqori sifatli ijtimoiy-iqtisodiy institutlardir. Shu nuqtai nazardan, «sifat, sifat va yana sifat» gʻoyasi shior emas, balki taraqqiyotning kompleks falsafasi sifatida qaralishi lozim.

Ushbu gʻoyaning mantiqiy ketma-ketligi quyidagicha: sifatli inson kapitali sifatli mehnatni, sifatli mehnat sifatli mahsulot va xizmatlarni, sifatli mahsulot va xizmatlar raqobatbardosh iqtisodiyotni, raqobatbardosh iqtisodiyot esa farovon jamiyatni yaratadi. Farovon jamiyat Yangi Oʻzbekistonning mustahkam poydevoridir. Shu bois taraqqiyotning asosiy mezonini “qancha?” degan miqdoriy savoldan

“qanday sifatda?” degan savolga koʻchirish maqsadga muvofiq. Har bir inson, tashkilot va davlat idorasi oʻz faoliyatiga “Bugun kechagidan yaxshiroq, sifatliroq nima yaratdim?” degan savol bilan yondashsa, sifat taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. Har bir tarmoq va hudud uchun oʻlchanadigan “Sifat koʻrsatkichlari tizimi”ni ishlab chiqish.
2. Ta'lim muassasalari faoliyatini bitiruvchilar soni bilan emas, ularning mehnat bozoridagi natijalari asosida baholashga oʻtish; oliy ta'lim muassasalari va tarmoq korxonalari oʻrtasidagi shartnomalar asosida dual ta'lim tizimini keng joriy etish [3].
3. Korxonalarda sifat menejmenti va mehnat unumdorligi koʻrsatkichlarini asosiy samaradorlik koʻrsatkichlari (KPI) sifatida belgilash, xodimlar salohiyatini roʻyobga chiqarish uchun mas'uliyat va ragʻbatlantirish mexanizmlarini kuchaytirish.
4. Hududlar kesimida “Sifatli taraqqiyot indeksi”ni joriy etish hamda davlat xizmatchilari faoliyatini aholining qoniqish darajasi asosida baholash tizimini yoʻlga qoʻyish.
5. Ilmiy tadqiqotlarni iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning aniq muammolarini hal etishga yoʻnaltirish, mualliflarni ilmiy tavsiyalarning amaliyotga joriy etilishi natijalariga koʻra ragʻbatlantirish.
6. Sifatli ish oʻrinlari yaratilishini – zamonaviy talablarga javob beradigan, malakali kadrlar talab etadigan va yuqori ish haqi toʻlanadigan ish oʻrinlarini – mehnat bozori siyosatining asosiy mezonlaridan biriga aylantirish.
7. Sifat madaniyatini oila, maktab, oliy ta'lim, korxona va davlat boshqaruvining uzviy qismiga aylantirish; bunda sifat madaniyatining asosi tarbiya ekanini e'tiborga olish.
8. Sifat va samaradorlikni oshirish maqsadida raqamlashtirish va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish.

Umuman olganda, sifatli inson kapitali mavjud joyda sifatli mehnat, sifatli mehnat natijasida esa farovon hayot ta'minlanadi. Ushbu tamoyillarga asoslangan takliflar milliy taraqqiyotning konseptual gʻoyalaridan biri sifatida qaralishi va ilmiy jihatdan doimiy takomillashtirib borilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi toʻgʻrisida”gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
3. Oʻzbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi OʻRQ-637-son “Ta'lim toʻgʻrisida”gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
4. Schultz T.W. Investment in Human Capital // The American Economic Review. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – P. 1–17.

5. Becker G.S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – New York: National Bureau of Economic Research; Columbia University Press, 1964.
6. Deming W.E. Out of the Crisis. – Cambridge, MA: MIT Press, 1986.
7. Juran J.M., Godfrey A.B. Juran's Quality Handbook. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill, 1999.
8. Crosby P.B. Quality Is Free: The Art of Making Quality Certain. – New York: McGraw-Hill, 1979.
9. Ishikawa K. What Is Total Quality Control? The Japanese Way. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1985.
10. ISO 9000:2015. Quality management systems – Fundamentals and vocabulary. – Geneva: International Organization for Standardization, 2015.
11. International Labour Office. Decent Work: Report of the Director-General. International Labour Conference, 87th Session. – Geneva: ILO, 1999.
12. World Bank. The Human Capital Project. – Washington, DC: World Bank, 2018.
13. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. – New York: Free Press, 1990.
14. Sen A. Development as Freedom. – Oxford: Oxford University Press, 1999.